

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

**2024/3-SON
ILOVA TO'PLAM**

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

D.T.Tursunova	
Ijtimoiy faollik tushunchasining mazmun-mohiyati va uning ijtimoiy-pedagogik xususiyatlari.....	244
Z.T.Aripov	
Bo'lajak o'qituvchilarni ijodiy o'z-o'zini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish.....	247
N.O.Saidova	
Boshlang'ich maktabgacha yoshdagi bolalarda miqdoriy tushunchalarning o'ziga xos xususiyatlari.....	251
M.A.Abdubannobova	
O'zbekistonda inklyuziv ta'lim tizimi jarayoni va uning joriy etilishi.....	254
O.A.Ashurova	
Ekoestetik madaniyatni rivojlantirishning ilmiy-pedagogik ahamiyati.....	257
B.Latipov	
Ta'lim va tarbiya sifatini oshirishda hamkorlik konsepsiyasining roli.....	261
T.Y.Bakirov, R.M.Mamatqulov	
O'quvchilar bilim va ko'nikmalarini baholashda dasturiy ilovalardan foydalanish samaradorligi.....	265
V.T.Jo'rayev	
Oliy ta'lim massasalarini boshqarishda raqamli texnologiyalarning o'rni.....	269
Z.M.Xursanova	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida mantiqiy tafakkurni rivojlantirishning zamonaviy yondashuvlari.....	274
M.A.Jalilov	
O'yin texnologiyalari-bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kasbiy tayyorgarlikni rivojlantirish vositasi sifatida.....	279
Z.X.Siddiqov	
Talabalar matematik kompetentligini rivojlantirishda noan'anaviy ta'lim yondashuvlar.....	283
M.G'.Zaylobidinova	
Nodavlat ta'lim muassasalarida ta'lim oluvchilarning ta'limni modernizatsiyalash orqali hayotiy ko'nikmalarini oshirish.....	287
Г.П.Наркабилова	
Влияние на формирование профессиональных компетенций будущих педагогов и интеграция в образовательную практику.....	291
M.Sh.Dehqonova	
Bo'lajak o'qituvchilarda pedagogik loyihalash ko'nikmalarini shakllantirishning turli bosqichlari.....	295
N.Q.Olimova	
Xalq og'zaki ijodi vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarining talaffuzi va nutqini o'stirish metodikasini takomillashtirish.....	299
D.T.Rustamova	
Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar nutqida ma'nodosh so'zlarni faollashtirish modelini takomillashtirish.....	304
Y.U.Egamberdiyeva	
Boshlang'ich sinf o'qituvchisiining kreativlik sifatlarini rivojlantirish.....	309
U.Y.Axmedova	
Texnologik ta'lim asosida kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda algoritm tushunchasini shakllantirish.....	313
M.U.Buvajonova	
Boshlang'ich sinf ona tili va o'qish savodxonligi darslarida lug'at ustida ishlash metodikasi.....	317
M.A.Mamasaidova, S.Sobirova	
Matematikaga oid misol va masalalarni yechishda matematik tafakkurning muhim roli.....	321
M.A.G'ofurova	
Boshlang'ich sinfda o'quvchilarning matematikaga oid mantiqiy mushohada yuritish faoliyatini rivojlantirish.....	325
D.M.Gazieva	
Psychological and pedagogical aspects of media use in education.....	331



UO'K: 376.4

O'ZBEKISTONDA INKLYUZIV TA'LIM TIZIMI JARAYONI VA UNING JORIY ETILISHI
ПРОЦЕСС СИСТЕМЫ ИНКЛЮЗИВНОГО ОБРАЗОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ И ЕГО
РЕАЛИЗАЦИЯ

PROCESS OF INCLUSIVE EDUCATION SYSTEM IN UZBEKISTAN AND ITS
IMPLEMENTATION

Abdubannobova Mahliyo Abdurashid qizi 
Farg'ona davlat universiteti, o'qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada mamlakatimizda joriy qilinayotgan yangi ta'lim tizimi ya'ni inklyuziv ta'lim tizimining takomillashuvi, ninklyuziv ta'lim tizimini rivojlantirish maqsadida yangi qaror va farmonlar qabul qilinib, vazifalar yuklatilganligi haqida so'z boradi. Ushbu maqolada inklyuziv ta'limning mazmuni va mohiyati, shuningdek, uning davlat siyosati sifatidagi ahamiyati tahlil qilinadi. Inklyuziv ta'limning asosiy maqsadi nogiron va sog'lom bolalar o'rtasidagi to'siqlarni bartaraf etish va maxsus ehtiyojlarga ega bolalarni ijtimoiy hayotga moslashtirishdan iborat. Maqolada mamlakatimizda inklyuziv ta'limning rivojlanishi, alohida ehtiyojli bolalarning ta'lim olish huquqlari, xalqaro tajribalar va bu sohada qabul qilingan hujjatlar haqida ma'lumotlar keltirilgan. Xulosa qismida inklyuziv ta'limning jamiyatdagi ijtimoiy va iqtisodiy jihatlari tahlil qilinadi hamda uning ijtimoiy integratsiyaga qo'shgan hissasi ko'rsatiladi.

Аннотация

В данной статье рассказывается о новой системе образования, внедренной в нашей стране, то есть о совершенствовании системы инклюзивного образования, были приняты новые решения и постановления и поставлены задачи по развитию системы инклюзивного образования. В данной статье анализируется содержание и природа инклюзивного образования, а также его значение как государственной политики. Основная цель инклюзивного образования – устранение барьеров между детьми-инвалидами и здоровыми и адаптация детей с особыми потребностями к социальной жизни. Статья содержит информацию о развитии инклюзивного образования в нашей стране, правах детей с особыми потребностями на образование, международном опыте и документах, принятых в этой области. В заключительной части анализируются социальные и экономические аспекты инклюзивного образования в обществе и показан его вклад в социальную интеграцию.

Abstract

This article talks about the new educational system introduced in our country, that is, the improvement of the inclusive education system, new decisions and decrees were adopted and tasks were assigned to develop the inclusive education system. This article analyzes the content and nature of inclusive education, as well as its importance as a state policy. The main goal of inclusive education is to eliminate barriers between disabled and healthy children and to adapt children with special needs to social life. The article contains information about the development of inclusive education in our country, the rights of children with special needs to education, international experiences and documents adopted in this field. In the concluding part, the social and economic aspects of inclusive education in society are analyzed and its contribution to social integration is shown.

Kalit so'zlar: ta'lim, tarbiya, inklyuziv, rivojlanish, takomillashuv, harakat, individual yondashuv, aqliy rivojlanish darajasi, tahlil, umumlashtirish, ommalashtirish, zamonaviy texnologiya, shakl va usul, korreksion tarbiya.

Ключевые слова: образование, обучение, инклюзивный, развитие, совершенствование, действие, индивидуальный подход, уровень психического развития, анализ, обобщение, популяризация, современная технология, форма и метод, коррекционное образование.

Key words: education, training, inclusive, development, improvement, action, individual approach, level of mental development, analysis, generalization, popularization, modern technology, form and method, correctional education

KIRISH

Inklyuziv ta'lim — davlat siyosati bo'lib, nogiron va sog'lom bolalar o'rtasidagi to'siqlarni bartaraf etish, maxsus ta'limga muhtoj bolalar o'smirlar rivojlanishda uchraydigan nuqsonlar yoki iqtisodiy qiyinchiliklardan qat'iy nazar ijtimoiy hayotga moslashtirishga yo'naltirilgan umumta'lim jarayoniga qo'shishni ifodalovchi ta'lim tizimidir. "Inklyuziv ta'lim" atamasi fransuzcha „inclusif“

PEDAGOGIKA

soʻzidan kelib chiqqan boʻlib, „oʻz ichiga oladi“ deb tarjima qilinadi va maxsus ehtiyojlari boʻlgan va shartli ravishda sogʻlom, yaʼni sogʻligi cheklanmagan odamlarning birgalikdagi taʼlimini anglatadi. Inklyuziv taʼlimning mazmun mohiyati toʻgʻrisidagi bilim va maʼlumotlar hali jamiyatda yetarli emas.

Alohida yordamga muhtoj bolalar va oʻsmirlarga nisbatan gʻamxoʻrlik, ularning huquqlarini ijtimoiy qoʻllab-quvvatlash, taʼlim-tarbiya jarayonini bu bolalarning ehtiyoji va qobiliyatiga mos ravishda tashkil etish, sogʻlom jamiyatga tenglashtirish ishlari bugungi kunning oʻta dolzarb masalalardan biridir. Hozirgi kunda Respublikamizda maxsus maktabgacha taʼlim muassasalari va maktab-internatlar, imkoniyati cheklangan shaxslar uchun kasb-hunar maktablari mavjud boʻlib, ushbu taʼlim muassasalarida imkoniyati cheklangan bolalar uchun barcha shart-sharoitlar mavjud. Ammo koʻplab sabablarga koʻra ayrim imkoniyati cheklangan bolalar uyda yakka tartibda oʻqishmoqda yoki ayrimlari esa batamom taʼlimdan chetda qolib ketmoqdalar. Bundan tashqari maxsus maktabgacha taʼlim va tarbiyaning korreksion-pedagogik ish sifati yuqori darajada boʻlsada, biroq aynan alohida ehtiyojli bolalarning sogʻlom muhitda taʼlim-tarbiya olmayotganliklari sababli ijtimoiy hayotimizga moslashishlarida koʻplab qiyinchiliklar va muammolarga duch kelmoqdalar. Shuning uchun ham imkoniyati cheklangan bolalarning yopiq-segregatsion taʼlim tizimida oʻqitilishining koʻplab salbiy oqibatlarini yuzaga keltirishi jahon hamjamiyati tomonidan ham tan olindi.

Xususan "Taʼlim toʻgʻrisida"gi Qonuning II-bobi 9-moddasida jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari boʻlgan bolalar, shuningdek uzoq vaqt davolanishga muhtoj boʻlgan bolalar davlat ixtisoslashtirilgan taʼlim muassasalarida, umumiy oʻrta va oʻrta maxsus taʼlim tashkilotlarida inklyuziv shaklda yoki uy sharoitlarida yakka tartibda taʼlim oladi.[1, 24-bet].

ADABIYOTLAR TAHLILI.

Mamlakatimiz taʼlim tizimida bu masalaga alohida eʼtibor qaratiladi. 2020-yil oktyabrda qabul qilingan Prezidentimizning "Alohida taʼlim ehtiyojlari boʻlgan bolalarga taʼlim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida"gi qaroriga muvofiq 2020 - 2025 yillarda xalq taʼlimi tizimida inklyuziv taʼlimni rivojlantirish kontseptsiyasi ushbu bosqichning asosiy boʻgʻini hisoblanadi.[2,6-7 bet.]

Oʻzbekiston Respublikasining "Bola huquqlarining kafolatlari toʻgʻrisida"gi qonunida "Jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni boʻlgan bola" va "Nogiron bola" tushunchalariga taʼrif berilgan. Xujjatda: "Jismoniy va (yoki) ruhiy rivojlanishida nuqsonlari boʻlgan bola – nogironlikni belgilash uchun yetarli boʻlmagan jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) va (yoki) ruhiy nuqsonlari boʻlgan bola"; "Nogiron bola – jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) va (yoki) ruhiy nuqsonlari boʻlganligi tufayli turmush faoliyati cheklanganligi munosabati bilan ijtimoiy yordamga, himoyaga muhtoj hamda qonunda belgilangan tartibda nogiron deb topilgan bola" -kabi izohlar keltirilgan.[3,13-14 b] Qonunga muvofiq nogiron bolalarning tibbiy-ijtimoiy yordam va bilim olishga boʻlgan huquqlari kafolatlangan boʻlib, tibbiy-psixologik-pedagogik komissiyaning tavsiyasi asosida hamda ota-onalar xohish-istagiga koʻra umumtaʼlim yoki ixtisoslashtirilgan taʼlim muassasasi turini tanlash huquqiga ega.

2020-2025 yillarda xalq taʼlimi tizimida inklyuziv taʼlimni rivojlantirish kontseptsiyasini 2020-2021-yillarda amalga oshirish boʻyicha "Yoʻl haritasi"da:

— alohida taʼlimga ehtiyoji boʻlgan bolalarni inklyuziv taʼlim tizimi joriy qilingan umumiy oʻrta va professional oʻquv muassasalariga yuborishga imkon beruvchi tibbiy koʻrsatmalar roʻyxatini ishlab chiqish va tasdiqlash;

— alohida taʼlimga ehtiyoji boʻlgan bolalarni erta aniqlash va qoʻllab-quvvatlash tizimini takomillashtirish;

— ixtisoslashtirilgan taʼlim muassasalari oʻquvchilari uchun kasbga oʻqitish kurslarini tashkil etish va sertifikat berish tartibini ishlab chiqish;

— oliy taʼlim yoʻnalishlari va mutaxassisliklari klassifikatorida "Defektologiya" taʼlim yoʻnalishi oʻrniga "Maxsus pedagogika" taʼlim yoʻnalishini kiritish;

— alohida taʼlimga ehtiyoji boʻlgan bolalar bilim oladigan oʻquv muassasalarini maxsus adabiyotlar va metodik-qoʻllanmalar bilan taʼminlash jarayonlari bilan bogʻliq qator vazifalar belgilangan.[4, 38-39 b]

NATIJA VA MUHOKAMA

Oʻzbekistonda inklyuziv taʼlimni takomillashtirishning tashkiliy-iqtisodiy jihatlarini mustahkamlashga yoʻnaltirilganligi alohida ahamiyatga ega. Ammo bu yoʻnalishni rivojlantirishda

ta'limning ijtimoiylashuvi bilan bog'liq jarayonlarga alohida e'tibor qaratmoq lozim. Shuni unutmash joizki, tegishli xorij tajribalariga muvofiq inklyuziv ta'limni tashkil etishda pedagogik jihatlar asosiy o'ringa ega. Xorij davlatlari tajribasi Yevropa mamlakatlari, AQSH va boshqa rivojlanayotgan davlatlarda ushbu soha taraqqiyoti ijtimoiy xarakter kasb etadi. Masalan, Germaniyada inklyuziv ta'lim sharoitidagi talabalarning ma'lum qismi aralash tarzda oddiy auditoriyalarda tahsil oladi. Biroq ularda individual o'quv jarayoni bilan bog'liq holatlar ham saqlangan bo'lib, o'qish paytida zarur tibbiy yordam olish va nuqsonlarni tuzatish imkoniyatiga

ega bo'ladilar. Oliy ta'limda esa jami talabalarning o'rtacha 4-8 foizi nogironligi bo'lgan talabalar. Germaniya qonunchiligiga muvofiq nogironligi bo'lgan talabalar, kundalik hayot uchun zarur hisoblangan maxsus texnik va yordamchi vositalar bilan ta'minlanadi. Ularga doimiy tarzda davlat ijtimoiy xizmatlari orqali ijtimoiy va tibbiy yordam ko'rsatib boriladi. Nogironligi bo'lgan talabalar ota-onalarining daromadlari o'rtacha daromaddan yuqori bo'lsa, ular mazkur harajatlarning ma'lum qismini to'lashlari shart.[5, 39-40 b]

Alohida ehtiyojli bolalar inklyuziv ta'limining samarali tashkil etilishi natijasida:

imkoniyati cheklangan farzandlari mavjud bo'lgan oilalarning moddiy va ma'naviy muammolariga barham beriladi va mahallarda ajratish iskanjasidan qutulishga imkon yaratiladi;

- imkoniyati cheklangan bolalarni maktablar va jamoatchilik orasida kamsitishlarning oldi olinadi, bolalar o'rtasida tenghuquqlilik ta'minlanadi, do'stona munosabatlar shakllanadi;

- maxsus ehtiyojli bolaning o'z oilasi va jamiyat davrasida bo'lishdek ulkan imkoniyat yaratiladi;

- jamiyatning yanada inklyuzivlashuviga olib keladi;

- barcha uchun ta'lim sifati yanada yaxshilanadi;

- imkoniyati cheklangan bolalar sog'lom tengdoshlari orasida tabiiy sharoitlarda yashash va mehnat qilishga moslashadilar;

- imkoniyati cheklangan bolalarning ijtimoiy jamiyatga erta va samarali moslashishlari ta'minlanadi, ya'ni jamiyatda boshqalar ko'magiga qaramlar soni kamayadi.[6, 86- b]

XULOSA

Inklyuziv ta'lim nogironlarning ijtimoiy tengdoshlari bilan bir qatorda ta'lim olishini ta'minlaydi, (agarda ularning rivojlanishida jiddiy sabablar bo'lmasa) muntazam maktablarga qabul qilishini nazarda tutadi. O'ta murakkab nuqsonli bolalar ayrim hollarda maxsus maktablar va maxsus rehabilitasiya markazlari yoki muntazam maktablar qoshidagi maxsus sinflarda korreksion dasturlar yordamida ta'lim oladilar.

Ta'lim tizimida inklyuziv ta'limning ahamiyati shundaki, imkoniyati cheklangan bolalarni ilk yoshlaridanoq sog'lom bolalar qatoriga qo'shib sifatli ta'lim olishini ta'minlagan holda bolada ruhiy va jismoniy hissiyotlarini va haraktlarini rivojlantirishdir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'QRQ-637-сон 23.09.2020. Ta'lim to'g'risida (lex.uz)
2. O'zbekiston Respublikasining Prezidentining 2020 yil 13 oktyabrdagi "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4860-son Qarori.
3. BMTning "Nogironlar huquqlari to'g'risida"gi Konvensiyasi(UNCPRD) 2006-yil 13-dekabr
4. M.A.Tilakova "Inklyuziv ta'limning joriy etilishi" PEDAGOGS International Resorch Journal- 2023 C 38-39 b
5. M.A.Tilakova "Inklyuziv ta'limning joriy etilishi" PEDAGOGS International Resorch Journal- 2023 C 39-40 b
6. G.S.Muhitdinova "Inklyuziv ta'limning mazmun va mohiyati"INDIA INTERNATIONAL SCIENTIFIC ONLINE CONFERENCE THE THEORY OF RECENT SCIENTIFIC RESEARCH IN THE FIELD OF PEDAGOGY – 2021 C 86-87 b
7. Инклюзивная практика в дошкольном образовании. Современный образовательный стандарт / Т. В. Волосовец, А. М. Казьмин, В. Н. Ярыгин. – М.: Мозаика-Синтез, 2011. – 144 с.
8. O'zbekiston Respublikasining 2020-2025-yillarda Xalq ta'limi tizimida inklyuziv ta'limni rivojlantirish Konsepsiyasi. (<https://lex.uz/docs/-5044711>)
9. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 15-oktyabrdagi "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida"gi O'QRQ-641-son Qonuni.
10. R.SHomaxmudova "Inklyuziv ta'limning nazariy va amaliy asoslari"- Razzoqov O.J.- Toshkent-2007 yil